

# **Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha respublika komissiyasi to'g'risidagi**

## **NIZOM**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha respublika komissiyasining (keyingi o'rinlarda — Respublika komissiyasi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilaydi.

2. Respublika komissiyasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, Oliy Majlis palatalari qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qaror va farmoyishlariga, ushbu Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

3. Respublika komissiyasining o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat buyurtmachilari va ularning mansabdor shaxslari tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

### **2-bob. Respublika komissiyasining asosiy vazifalari**

4. Quyidagilar Respublika komissiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

davlat xaridlarining ochiq va shaffof o'tkazilishini, davlat buyurtmachilari tomonidan qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish;

tovarlar (ishlar, xizmatlar) davlat xaridining maqsadga muvofiqligini, davlat buyurtmachilari tomonidan boshlang'ich narxlarning qonunchilik hujjatlariga muvofiq shakllantirilishini monitoring qilish;

korporativ buyurtmachilar tomonidan davlat kafolatisiz tashqi qarz mablag'lari jalb qilinishini nazorat qilish;

davlat buyurtmachilarining qiymati 1 million AQSh dollaridan yuqori bo'lgan shartnomalarini, shu jumladan import shartnomalarini xatlovdan o'tkazish, ularni maqbullashtirish choralarini ko'rish;

korporativ buyurtmachilar tomonidan tashqi qarz mablag'larining jalb qilinishi, ushbu mablag'lar hisobidan loyihalarning moliyalashtirilishi va amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatish, shuningdek, ularning samaradorligi va natijadorligini tahlil qilib borish hamda tashqi qarz hajmlarini maqbullashtirish bo'yicha choralarini ko'rish;

davlat buyurtmachilari rahbarlarining davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish bo'yicha hisobotlarini muhokama qilish.

### **3-bob. Respublika komissiyasining huquq va majburiyatlari**

5. Respublika komissiyasi quyidagi huquqlarga ega:

o'ziga yuklatilgan vazifalar yuzasidan tegishli tashkilotlardan zarur bo'lgan hujjatlarni so'rab olish;

davlat xaridlari sohasidagi ish amaliyotini umumlashtirish va tahlil qilish yuzasidan Respublika komissiyasi ishchi organi hamda boshqa vazirlik va idoralarga ko'rsatmalar berish;

davlat xaridlarini amalga oshirish yuzasidan o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, 30 foizdan kam bo'lgan hajmda bajarilgan va (yoki) 30 foizdan

kam miqdorda to'lov amalga oshirilgan shartnomalar bo'yicha xaridlar samaradorligini oshirish hamda ortiqcha xarajatlarni qisqartirish bo'yicha zarur choralar ko'rish;

davlat buyurtmachilari rahbarlariga davlat xaridlari sohasida yo'l qo'yilgan kamchiliklar uchun intizomiy jazo choralarini belgilash.

6. Respublika komissiyasi kiritilgan masalalarni har tomonlama va xolisona ko'rib chiqishga majburdir.

7. Respublika komissiyasi qonunchilikka muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

#### **4-bob. Respublika komissiyasi ishini tashkil etish**

8. Respublika komissiyasi qarorlari Respublika komissiyasining majlisida ishtirok etayotgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lganda Respublika komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi ovoz hisoblanadi.

9. Respublika komissiyasi majlisida qabul qilingan qarorlar bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda bayonnoma Respublika komissiyasi a'zolari tomonidan imzolanadi va raisi tomonidan tasdiqlanadi.

10. Respublika komissiyasi qarorlari bajarilishini nazorat qilish Respublika komissiyasining ishchi organi tomonidan amalga oshiriladi.

11. Respublika komissiyasining ishchi organi vazifasi Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

12. Quyidagilar Respublika komissiyasi ishchi organining asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) xalqaro konsalting va audit kompaniyalarni jalb qilgan holda quyidagilar bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish:

xarid jarayonlarini auditdan o'tkazish, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarining samaradorligini oshirish ("forenzik");

shartnomalar tuzish jarayonlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, narxlarni ekspertizadan o'tkazish va tovarlar (ishlar, xizmatlar) sifatini ta'minlash;

korporativ buyurtmachilar uchun xaridlarni amalga oshirish tartiblarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

har bir korxonada xaridlar transformatsiyasi ofislarini tashkil qilish;

b) Respublika komissiyasi majlislarini o'tkazish bo'yicha tashkiliy tadbirlarni amalga oshirish, shu jumladan majlis materiallarini tayyorlash va tarqatish, zarur hujjatlarni saqlash;

v) Respublika komissiyasining qarorlari ijrosi nazorati va monitoringini tashkil etish;

g) vazirlik va idoralarning takliflari va ma'lumotlarini umumlashtirish hamda Respublika komissiyasiga kiritish;

d) davlat buyurtmachilari tomonidan taqdim qilingan hujjatlar yuzasidan vazirliklar va idoralarning xulosalarini olish hamda ekspertlar (ekspert tashkilotlari), konsalting kompaniyalari va boshqa mutaxassislarni jalb qilish;

e) korporativ buyurtmachilar tomonidan quyidagi vazifalarning amalga oshirilishi ustidan nazorat o'rnatish hamda natijalari bo'yicha Respublika komissiyasiga ma'lumot kiritish:

davlat xaridlarini amalga oshirishda xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish to'g'risidagi e'lonlarni, davlat xaridlari natijalari to'g'risidagi axborotni maxsus axborot portalida va ommaviy axborot vositalarida joylashtirib borish;

tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh ming baravari miqdoridan oshgan hollarda, xaridga doir texnik topshiriqlarni va tender hujjatlarini kompleks ekspertizadan o'tkazish uchun belgilangan tartibda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasiga kiritish;

davlat xaridlarining yillik va choraklik reja-jadvallarini, shuningdek, import qilish rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatlarini xaridlarning maqsadga muvofiqligi nuqtai nazaridan kuzatuv kengashlari majlisida ko'rib chiqish;

yetkazib beruvchilarning dastlabki malaka tanlovini o'tkazish tartibini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

qiymati 20 mln. AQSh dollari ekvivalentidan yuqori bo'lgan loyihalarga tashqi qarz mablag'larini jalb etishning maqsadga muvofiqligi hamda asoslantirilganligini monitoring qilish;

ombor va transport logistikasini boshqarish tizimidagi jarayonlarni avtomatlashtirish orqali "E-ombor" tovar-moddiy resurslar harakatini hisobga olishning elektron tizimini joriy etish.

Respublika komissiyasi ishchi organi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa vazifalarini ham amalga oshirishi mumkin.

13. Respublika komissiyasi ishchi organi davlat buyurtmachilaridan quyidagi hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilib olishi mumkin:

davlat xaridlari bo'yicha texnik topshiriq va xarid hujjatlari;

xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalari;

xarid qilish tartib-taomilida davlat xaridlarini bajarish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan takliflar va ular bilan yozishmalarning nusxalari;

loyihaning tasdiqlangan texnik iqtisodiy asoslari, moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari yuzasidan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi "Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi" davlat unitar korxonasining xulosasi va shartnoma loyihasi;

moliyalashtirish manbai va uni asoslantiruvchi hujjatlar;

Kuzatuv kengashining xulosalari;

boshqa zarur hujjatlar va ma'lumotlar.

14. Respublika komissiyasi ishchi organi davlat buyurtmachilari tomonidan taqdim qilingan hujjatlar yuzasidan xulosalar olish uchun tegishli vazirliklar va idoralariga so'rovnoma yuborishi mumkin.

15. Respublika komissiyasining ishchi organi so'roviga ko'ra davlat xaridlari bilan bog'liq hujjatlar, ma'lumotlar va xulosalar vazirlik va idoralar tomonidan besh ish kuni muddatda taqdim etilishi shart.

**5-bob. Yakunlovchi qoida**

16. Mazkur Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradilar.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03.07.2021-y., 07/21/5171/0633-son;  
07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son; 03.08.2023-y., 07/23/242/0556-son)*